



Google
Scholar



IN ALL AREAS

PEDAGOGS

international research journal

volume 2
issue -1
january 2022



www.pedagoglar.uz

PEDAGOGS *international research journal*



PEDAGOGLAR.UZ

Scientific Research Center

PEDAGOGS

legal, medical, social, scientific journal

IN ALL AREAS

Volume-2, Issue-1, January–2022



ICI JOURNALS
MASTER LIST

NEMIS TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING MAVZUIY
GURUHLARI TASNIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5878319>

Babayeva Vasila Tashpulatovna (BuxDU)

Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrasida katta o'qituvchisi

email: vasila.babayeva@bk.ru

Tayanch so'zlar: o'zlashgan so'zlar, lisoniy ehtiyoj, lisoniy birlik, lug'aviy birlik, leksika, leksema, leksik-semantik xususiyat.

Kluchevie slova: zaimstvovannie slova, lingvisticheskaya potrebnost, lingvisticheskoe edinenie, slovarnaya edinista, leksika, leksema, leksiko-semanticheskoe osobennost.

Key words: borrowings, linguistic need, linguistic unit, leexecs, lexeme, lexical-semantic peculiarity.

Annotatstiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining lug'at tarkibida nemis tilidan o'zlashgan so'zlarning faol qo'llanilib kelayotganligi to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan.

Annotatstiya: V state dan analiz i polnoe svedenie o mnogo ispolzovannykh zaimstvovannykh slov kotoroe perexodili s nemestkogo na uzbekskiy yazyka

Abstract: A complete information about the active usage of the borrowings from the German language in Uzbek language vocabulary is given in the article.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" risolasida o'zbek adabiyotining bugungi kuni va ertangi istiqboli haqida so'z yuritib, jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini tarjima qilish, chop etish, o'rganish bilan bog'liq tajribalar, jahon adabiyoti bilan aloqalarni yanada rivojlantirish masalasiga e'tiborni kuchaytirish lozimligiga urg'u beradi.

Nemischa soʻzlar oʻzbek adabiy tilining turli tarixiy taraqqiyot davrlarida turlicha ijtimoiy sabablar bilan kirib keldi. Ular madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, kasb-hunar, adabiyot-sanʼat, hayvonot dunyosi, jonivorlar, oʻsimliklar, qishloq xoʻjaligi, tabiat hodisalariga oid soʻzlardir.

Maʼlumki, til soʻz yasash va soʻzni yangi maʼnolarda qoʻllash kabi ichki imkoniyatlardan tashqari, tashqi manbalar asosida ham rivojlanib, boyib boradi. Tilning tashqi manbalar taʼsirida boyishida lugʻaviy birliklarning oʻzlashishi muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tillardan olinayotgan lisoniy birliklar tilda paydo boʻlgan muayyan bir lisoniy ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Mazkur ehtiyoj tufayli bir tildan boshqa tilga soʻzlar oʻzlashadi. Oʻzlashgan lisoniy birlik oʻzi bilan oʻzga tilga yangi bir tushunchani, yangi bir maʼnoni ham olib kiradi.

Oʻzbek tiliga turli tarixiy bosqichlarda boshqa tillardan, chunonchi, arab, fors, rus va Evropa tillaridan koʻplab soʻzlar oʻzlashdi. Professor M. Mirtojievning taxmini boʻyicha, hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikasining 40 foizdan sal ortiqrogʻini boshqa tillardan oʻzlashgan leksemalar tashkil etadi. Ayonki, boshqa tildan lisoniy birliklarning olinishida soʻz oʻzlashtirish faol va qulay usuldir.

Mustaqillikka erishgunga qadar Evropa tillariga oid soʻzlar oʻzbek tiliga, asosan, rus tili orqali oʻzlashdi. Mustaqillik davrida esa rus tilidan oʻzlashgan soʻzlarning qoʻllanilish doirasi biroz susayib, Evropa tillaridan oʻzlashgan soʻzlarning taʼsir doirasi ortdi. Mustaqillik yillarida xorijiy mamlakatlar, chunonchi, Evropa bilan oʻzaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni oʻrnatish natijasida bu tillardan soʻzlar oʻzbek tiliga bevosita oʻzlashmoqda. Masalan, *kollej, listey, universitet, lizing, konsalting, sanastiya, sammit, trafik, birja* va boshqa shunga oʻxshash Evropa tillariga oid soʻzlar toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzbek tiliga oʻzlashdi. Nemis tilidan oʻzbek tiliga turli sohalarga oid soʻzlar oʻzlashgan. Ular orasida **harbiy sohaga oid** soʻzlar koʻpchilikni tashkil etadi. Bunday soʻzlarni ikki guruhga ajratib tasniflash mumkin:

Ulardan birinchisi **harbiy unvon va lavozim nomlari** boʻlib ularga quyidagilar kiradi: *generalitet* (armiyaning oliy qoʻmondonlik tarkibi; generallar), *gerstog* (saylangan harbiy boshliq; Gʻarbiy Evropada yuqori tabaqa dvoryanlarga,

knyazlarga beriladigan oliy unvonlardan biri va shu unvonga ega bo'lgan shaxs), *efreytor* (ba'zi mamlakatlarda oddiy askarga beriladigan boshlang'ich harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs), *rotmistr* (otliq askar ofisterlariga berilgan unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs), *soldat* (askar, jangchi, harbiy kishi), *unter-ofister* (quyi, eng kichik ofister; bir qancha mamlakatlar armiyasida kichik komandirlar tarkibidagi harbiy xizmatchi unvoni), *feldmarshal* (bir qator mamlakatlar, Avstriya, Prussiya, chor Rossiyasi armiyalarida joriy qilingan oliy harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan kishi; bu unvon Buyuk Britaniya va boshqa ba'zi mamlakatlarda saqlangan) va boshqalar.

Ikkinchi guruh so'zlarga **harbiy qurollar va ular qismlarining nomlari** kiradi: *bron*, *vizir*, *gilza*, *shompol*, *raketa*, *mauzer* va h. Bu kabi o'zlashma so'zlarning izohini to'liq keltirib o'tishni lozim topdik. *Bron* so'zining nemischa shakli *Brunja* bo'lib, uning asl lug'aviy ma'nosi «sovut, qoplama»dir. Harbiy mashinalarning o'q o'tmaydigan qalin po'lat niqobi, qoplama shu termin bilan ataladi. Misol: *U otgan o'q tank broniga tegib, no'xatdek uqalanib ketdi.* N.Safarov. Olovli izlar. *Vizir* so'zining nemischa shakli *Visir*dir. U *visire* (ko'rmoq, qaramoq) bo'lib, o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi: 1. O'qotar qurollarning mo'ljalga olish, mo'ljalga to'g'rilash moslamasi; 2. Fotoapparatlarda ko'rinish (tasvir)ni qidirish, uning fotoplyonkaga sig'adigan qismini aniqlash uchun xizmat qiladigan asbob; tasvir qidirgich; 3. Geodezik asboblarda ularni biron-bir nuqtaga yo'naltirishga imkon beradigan moslama. *Gaubista* so'zining nemischa shakli *Haubitze* bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «pana orqasidagi dushmanga yuqorilatib otadigan qisqa stavli to'p»dir.

Gilza so'zining nemischa shakli *Hülse* bo'lib, u o'zbek tilida ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Patron, snaryad va shu kabilarda ichiga porox va yonuvchi modda to'ldirib, og'ziga o'q joylanadigan, yupqa devorli, tagi berk metall stilindr. Masalan, *Katta yo'lda esa bolalar to'kilgan o'q, gilza va har xil buzilgan qurol qismlarini terib, o'ynab yurardilar.* Oybek. Quyosh qoraymas; 2. Papiros va sigaretlarda ichiga tamaki to'ldiriladigan yupqa qog'oz naycha. Misol: *[Akam] tayyor gilzaga tamaki tiqib, papiros yasari edi.* G'.G'ulom. Kechmish-kechirmishlarimdan. *Mauzer*

so'zining nemischa shakli *Mauser* bo'lib, u aka-uka nemis injener-sanoatchilari P.Mauzerlar nomidir. Harbiy qurolning bir turini, ya'ni revolver, bir zaryadli vintovka, avtomat to'pponchani aka-uka Mauzerlar yaratgani uchun mazkur qurol ular nomi bilan ataladi. Misol: *Og'ajon Eshon yotgan qora uyga Mirsharopov qo'lida mauzer ushlagan holda otilib kirdi.* J. Sharipov. Xorazm.

Shompol so'zining nemischa shakli *Stempel* bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «miltiq stvolini tozalash, moylash yoki (og'zidan o'qlanadigan miltiqqa) zaryad joylash uchun ishlatiladigan ingichka va uzun metall tayoq»dir. *Lafet* aslida fransuzcha *l'affut* so'zi bo'lib, u nemis tiliga *Lafette* shakllida o'zlashgan. Mazkur so'zning lug'aviy ma'nosi «to'p, zambarak stvoli o'rnatilgan dastgoh; zambarakning shoti va g'ildiraklardan iborat ost qismi»dir. *Raketa* aslida italyancha *rocchetta, rossa* so'zi bo'lib, u nemis tiliga *Rakete* shakllida o'zlashgan. Uning lug'aviy ma'nosi «ichidagi zaryadi yonganda osmonga ko'tariladigan, mushakbozlikda yoki harbiy ishlarda signallar berish va kerakli joylarni yoritish uchun qo'llanadigan snaryad; mushak»dir. Misol: *Qishloqning kun botish tomonidagi o'rmon burchagidan ikki marta oq raketa otildi.* I. Rahim, Chin muhabbat.

Shlem so'zining nemischa shakli *Hulle* bo'lib, u rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan. Mazkur so'zning asl lug'aviy ma'nosi «qobiq; yopinchiq» bo'lib, u o'zbek tilida ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Qadim zamonlarda va o'rta asrlarda qilich, gurzi, o'q; va shu kabi zarbidan saqlanish uchun boshga kiyiladigan temir qalpoq; dubulg'a; 2. Bosh va bo'yinni urilish, lat eyish, bosim va shu kabilardan saqlash uchun maxsus tayyorlangan bosh kiyimi. Misol: *kosmonavtlar shlemi, tankistlar shlemi* kabi.

Nemis tilidan o'zlashgan harbiy unvon, lavozim va qurollar nomi fonetik-struktural jihatdan katta o'zgarishga uchramagan. Leksik-semantik xususiyatlarida ham keskin farq mavjud emas.

Nemis tilidan o'zlashgan kasb-hunarga oid so'zlar ham katta guruhni tashkil qiladi. Sharq va G'arb xalqlari o'rtasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar qadim davrlardan boshlangan va u muntazam davom etgan. Ayniqsa, ilmiy-

adabiy sohalardagi aloqalar tarixda ancha taraqqiy etgan. Ma'lumki, eng qadimgi ajdodlarimiz, ularning turmush tarzi va madaniyati haqida ilk ma'lumotlar qadimgi grek-yunon yozma manbalarida uchraydi. Bundan shuni anglash mumkinki, G'arb xalqlari Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati va adabiyotini chuqur o'rganishga harakat qilishgan. Masalan, nemis yozuvchisi va mutafakkiri, yangi davr nemis adabiyotining asoschisi Yohan Volfgang Gyote (1749-1832) Firdavsiy, Farididdin Attor, Rumi, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz, Jomiy kabi shoirlar ijodi bilan yaqindan tanishgan. Bu paytda Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy ilmiy-badiiy asarlaridan namunalar nemis tiliga tarjima qilingan edi. Gyote «Mag'ribu mashriq devoni»ni (1814) Sharq she'riyatidan ilhomlanib yozgan. Devon «Mug'anniyoma», «Hofiznoma», «Ishqnom», «Hikmatnoma», «Zulayxonoma», «Temurnoma», «Soqiynoma» kabi 12 bo'limdan iborat. Devonda «bulbul», «hur», «fatvo», «mug'anniy», «mufti», «tilsim», «mirzo», «darvesh» kabi so'zlarni aslyatda qanday bo'lsa, u shunday qo'llaydi.

Nemis tiliga tegishli ko'pgina adabiy-badiiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Masalan, Gyote she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilish XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlangan. Bu sohadagi ishni dastlab Cho'lpon boshlab berdi. U Gyotening badiiy asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qildi. Istiqloq yillarida esa nemis adabiyotiga e'tibor va qiziqish ancha kuchaydi.

Nemis tilidan o'zbek tiliga turli tarixiy davrlarda o'zlashgan so'zlar orasida kasb-hunar, lavozim va mansab nomlari alohida guruhni tashkil etadi. Bunday o'zlashma so'zlar sifatida *kucher*, *vaxtyor*, *graf*, *master*, *soldat* kabilarni aytib o'tish mumkin. Nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan kasb-hunar, lavozim va mansab nomlarini qo'yida nemischa yozilish shakli va izohini keltirib o'tamiz: **generalitet** [*Generalität* < lat. *Generalis* – bosh, oliy]. Armiyaning oliy qo'mondonlik tarkibi; generallar; **gerstog** [*Herzog* – saylangan harbiy boshliq]. G'arbiy Evropada yuqori tabaqa dvoryanlarga, knyazlarga beriladigan oliy unvonlardan biri va shu unvonga ega bo'lgan shaxs; **buxgalter** [*Buch* — kitob + *halter*] – olib yuruvchi, tutib turuvchi] hisobchi; **vaxtyor** [*Wachter* - qorovul] Muassasalarda navbatchi qorovul; **graf** [*Graf*] – G'arbiy Evropada va chor Rossiyasida oliy tabaqali dvoryanlarning

knyazdan quyi, barondan yuqori unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs; **grossmeyster** [*Groß* – katta *meister* - usta]. Shaxmat va shashka ustalariga beriladigan eng oliy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxmatchi yoki shashkachi; **knyaz** [r < *qad. nem. kuning* – qabila urug' oqsoqoli] –*tar.* Chor Rossiyasida meros tariqasida yoki chor hukumati oldidagi xizmatlari uchun berilgan faxriy unvon hamda shu unvonga ega bo'lgan shaxs; **kanstler** [*Kazler* < *lot. Cancellaria*]. Ba'zi mamlakatlarda oliy davlat lavozimi va shu lavozimdagi amaldor; **kucher** [*Kutscher* - aravakash] izvosh haydovchi; **makler** [*Makler* – vositachi, dallol] Fond, tovar va valyuta birjalarida tuziladigan kelishuvlarda dallol; pulli vositachilik xizmatlarini amalga oshiruvchi ishbiarmon(q. ; **brokker**).; **master** [*Meister, ingl. master* < *yun.* — usta, ustoz; hunarmand]; **registrator** [*Registrator* < *lot. registrum* — qayd etilgan, yozib qo'yilgan] Registratsiya ishlarini olib boruvchi, ro'yxatga oluvchi kishi; **slesar** [*Schlosser* < *Schloß* - qulf, zulfin, tamba] Metall buyumlarni qo'lda ishlash, yasash, tuzatish bo'yicha mutaxassis ishchi; chilangar; **feldsher** [*Feldscher* < *Feld-scherer* — jarroh; harbiy qism sataroshi]. O'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hodimi, vrach yordamchisi; **shveystar** [*Schweizer* — shveystariyalik; fransuz qirollarini qo'riqlagan shveystariyalik soldat] Mehmonxona, restoran, muassasa va tashkilotlarning kiraverishida qorovullik qiluvchi shaxs; **efreytor** [*Gefreiter* - efreytor]. Ba'zi mamlakatlarda oddiy askarga beriladigan boshlang'ich harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs; **rotmistr** [*pol. rotmistrs* < *nem. Rittmeister* < *Ritt* — otliq askarlar otryadi + *Meister* — boshliq] *tar.* Chor armiyasi va jandarmeriyasida: otliq askar ofisterlariga berilgan unvon (piyoda qo'shinlardagi kapitan) va shu unvonga ega bo'lgan shaxs; **soldat** [*Soldat* < *ital. soldato* — maosh, moyana oluvchi < *soldo* — pul, tanga] Askar, jangchi, harbiy kishi; **unter-ofister** [*Unteroffizier* < *uniter* — quyi, eng kichik + ofister] Bir qancha mamlakatlar, jumladan, chor Rossiyasi armiyasida kichik komandirlar tarkibidagi harbiy xizmatchi unvoni; **feldmarshal** [*Feldmarschall*] Bir qator mamlakatlar (Avstriya, Prussiya, chor Rossiyasi va boshqa) armiyalarida joriy qilingan oliy harbiy (generallik) unvon va shu unvonga ega bo'lgan kishi (bu unvon Buyuk Britaniya va boshqa ba'zi mamlakatlarda saqlangan).

Nemis tilidan o'zlashgan ayrim lavozim va mansab nomlari tarixan eskirgan. Chunonchi, *polistmeyster, knyaz, kucher, ristar, yunker, rotmistr, unter-ofister* kabilar shunday so'zlar jumlasiga kiradi. O'zlashgan leksik birliklar guruhi tarkibida harbiy lavozim va unvon nomlari (*generalitet feldmarshal unter-ofister* kabilar) ko'pchilikni tashkil etadi. Bunday so'zlarning aksariyati Birinchi va Ikkinchi jahon urushi davrida o'zlashgan. Hozirgi o'zbek tilida *soldat, slesar, makler, master, grossmeyster, baletmeyster, konstertmeyster* kabilar keng iste'molli so'zlardir. Ayrim nemischa o'zlashgan so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda ham qo'llaniladi. Masalan, *ristar* so'zining o'z lug'aviy ma'nosi *otliq, chavandoz* bo'lib, u o'zbek tilida *fidokor, oliyhimmat, oliyjanob kishi*, ammo bu so'zlar ko'chma ma'noni ham ifodalaydi.

Nemis tilidan **san'at sohasiga oid so'zlar** ham talaygina. Aytilganidek, Mustaqillikka qadar o'zbek tili, asosan, rus tilidan so'z o'zlashtirish asosida boyigan bo'lsa, undan keyingi davrda G'arbiy Evropa tillaridan bevosita so'z o'zlashtirish hisobiga boyib bormoqda. Mazkur tillardan o'zlashgan so'zlarning ta'sir doirasi, sifat va miqdor darajasi ortib bormoqda.

Buning sabablari, asosan, quyidagilardir:

1. O'zbekistonda yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumning vujudga kelishi G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkoniyatini yaratdi. Shuning natijasida u tillardan ijtimoiy-siyosiy sohalarga oid so'zlar o'zbek tiliga ko'plab o'zlashdi.
2. O'zbekistonning G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorligi natijasida sanoat, transport va boshqa sohalarga doir ko'pgina yangi predmet va tushunchalar bevosita o'zbek xalqi hayotiga kirib keldi. Ularning bir qismi o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ikkinchi qismi esa o'sha tildagi ifodasiga ko'ra nomlandi.
3. Global ijtimoiy jarayonlar paytida xalqlar, chunonchi, G'arbiy Evropa xalqlari bilan o'zbek xalqi o'rtasida muloqat turlari son va hajm jihatdan ortib bormoqda.

Yangi kommunikastiya sohalari yuzaga kelmoqda. Mazkur omil ham G'arbiy Evropa tillaridan o'zbek tiliga muayyan miqdordagi so'zlarning o'zlashishiga zamin hozirladi.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirishda tasodifiylik emas, balki muayyan bir ijtimoiy va lisoniy imkoniyatlar asosga olinadi. O'zga tildan olinayotgan lisoniy birliklar tilda paydo bo'lgan muayyan bir lisoniy ehtiyojlarni qoplash uchun xizmat qiladi, zero ma'lum bir so'z yohud lisoniy shaklga ehtiyoj bo'lmasa, u boshqa tildan o'zlashtirilmaydi. Ana shu ehtiyoj tufayli bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar o'zlashadi. O'zlashgan lisoniy birlik o'zi bilan o'zga tilga yangi bir tushunchani, yangi bir ma'noni ham olib kiradi. Yangi ma'no va tushunchani to'g'ri ifodalashda ko'p hollarda boshqa tildan o'zlashgan lug'aviy birlik ustuvorlik qiladi. Ustivorlikka ega bo'lgan bunday o'zlashma o'zga tilga tez va oson singishadi, moslashadi, uning o'z lisoniy mulkiga aylanadi. Bunga misol sifatida nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan quyidagi so'zlarni keltirib o'tish mumkin: *vafli, gastrol, kafel, kvartira, kran, papka, plakat* va boshqalar.

Tarixdan ma'lumki, mustaqillikka qadar o'zbek tiliga evropacha lug'aviy birliklar fors-tojik, arab, xususan, usmonli turk va rus tillari orqali o'zlashgan. Chunonchi, fors-tojik tili vositasida grek tiliga oid *musiqa, pul* kabi so'zlar; arab tili asosida esa grek tiliga tegishli *qandil, jug'rofiya, faylasuf* singari so'zlar o'zbek tilining lug'at tarkibiga kirgan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, Evropa tillariga oid leksik birliklarning o'zlashishida usmonli turk va rus tillari muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur davrda fransuzcha *qo'mondon* (komandir), *vopur* (poroxod) kabi; lotincha *vulqon* kabi; italyanacha *po'rtana, lava* kabi; grekcha *daftar* kabi; nemischa *polis* (polistiya) kabi so'zlar usmonli turk tili orqali o'zbek tiliga o'zlashdi. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlar jumlasiga esa fransuzcha *dekret, mashina, gramm* kabi; inglizcha *klub, tramvay, traktor* kabi; nemischa *veksel, flot, front* kabilarni aytib o'tish mumkin. Sobiq sho'ro tuzumi davrida G'arbiy Evropa tillariga doir leksik birliklar, asosan, rus tili vositasida o'zbek tiliga o'zlashdi. Bu davrda nemis tilidan o'zlashgan so'zlar jumlasiga quyidagilarni aytib o'tish mumkin: *abzast, adres, brak, galstuk, gorn, grupp, zal, kvartira* va boshqalar.

Mustaqillik davrida esa bevosita o'zlashgan nemischa so'zlar sifatida quyidagilarni ifodalash mumkin: *investitsiya, fauna, makler, opstion* va h.k. Nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan san'at sohasiga oid leksik birliklarning miqdori aydarli ko'p emas. Ularni izohi va nemis tilida yozilish shakli bilan quyida keltirib o'tamiz:

anshlag - [*Anschlag* – afisha, ommaviy e'lon]. Teatr, kino va boshqalarning kassasidan biletlar sotilib bo'lganligi haqidagi maxsus e'lon;

arfa - [*Harfe* < *ital. agra*]. Uchburchak shaklidagi qadimiy ko'p torli tirnama musiqa asbobi;

baletmeyster - [*Valletmeister* – balet ustasi]. Balet, opera, operetta va boshqa sahna asarlaridagi raqslar, xoreografik ko'rinishlarni sahnalashtiruvchi shaxs;

gastrol - [*Gast* – mehmon, kelgindi + *Rolle* - rol]. **1.** Teatr artisti yoki artistlar guruhining boshqa shahar yoki hududidagi konsterti. *Yozda Qo'qon teatri Farg'onaga gastrolga borgan edi.* (H. G'ulom. Toshkentliklar); **2. ko'chma.** Biror narsa ilinjida boshqa joyga borish. *Jamkonyan bilan Karajyan (jinoyat qilish maqsadida) Volgograd, Xarkovga gastrol qilishdi.* (Gazetadan);

gorn - [*Horn* – muguz, shox]. Misdan yasalgan va xabar qilish (berish) yoki chaqirish uchun mo'ljallangan puflama musiqa asbobi. *Sado berdik gorndan, Oftob turdi o'rindosh.* (E. Vohidov);

kamerton - [*Kammerton* < *Kammer* — xona + *ton* — tovush]. **1 fiz.** Uchlari erkin tebranadigan qilib mahkamlangan ayrisimon metall tayoqcha shaklidagi asbob (tovush manbai). *Bir jismdan chiqib tarqalgan tovushning boshqa jismga urilib, tebranish hosil qilishi rezonans hodisasi deyiladi. Kamertonlarning rezonanslanishi bunga yaxshi misol bo'la oladi.* (O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol); **2 mus.** Ma'lum balandlikka ega bo'lgan va aniq tovush beruvchi, cholg'uchilik amaliyotida cholg'u asboblarini sozlashda ishlatiladigan kichik bir asbob (tovush balandligi etaloni bo'lib xizmat qiladi);

kapelmeyster - [*Kapellmeister* — kapella (xor) rahbari, ustasi]. Teatrda yoki harbiy simfonik orkestr dirijyori;

klassizm - [*Klassizismus* < lom. *Classicus* - namunali]. XVII asr XIX asr boshlarida Evropa adabiyoti va san'atida antik adabiyot va san'at namunalari va shakllangan badiiy uslub va oqim;

konstertmeyster - [*Konzertmeister*]— konstert ustasi, boshqaruvchisi. **1.** Orkestrda ijrochilar guruhini boshqarib boruvchi (birinchi skripkachi, birinchi altchi va sh. k.); **2.** Ashulachilarni tayyorlovchi, mashq qildiruvchi pianinochi;

proza - [*Prosa* < lot. *prosa (oratio)* - oddiy, jun (nutq)]. **1. ad.** Badiiy ijodning asosiy turlaridan biri, adabiy tur; nasr; **2.** O'lchamli mutanosib bo'laklar — she'rlarga bo'linmagan og'zaki yoki yozma nutq; nasr bilan yozilgan badiiy asar. *G'afyp G'ulomning o'zbek prozasi taraqqiyotidagi o'rni va rolini belgilashga bag'ishlangan qator ilmiy maqolalar, asarlar yozilgan.* (S. Mamajonov, G'afyp G'yulom prozasi);

takt - [*Takt* < lot. *tactus* — sal teginish; sezish, ushlab ko'rib his qilish]. **1.** Musiqa vazn birligi: musiqa asarining baravar vaqt davom etadigan har bir bo'lagi. *Hovlidagi bir tup atirgul ham shu qo'shiqning taktiga tushib, asta tebranmoqda, — dedi qiz.* (J. Abdullaxonov, Tong yorishgan sohilda); **2. tex.** Biror mexanizm ish stiklining bir bo'lagi; **3. tlsh.** Nutqning butindan katta (bir necha butindan iborat), frazadan kichik bo'lgan fonetik birligi;

fortepiano - [*Fortepiano* < ital. *forte* — kattiq + *piano* — asta, kuchsiz]. Klavishlari barmoq bilan bosib chalinadigan torli musiqa asbobi (royal va pianinoning umumiy nomi). *Sozi buzuvchi fortepyanoning baland ovozi yangradi.* (Jurnaldan).

Nemis tilidan bevosita va bivosita o'zlashgan *gastrol*, *baletmeyster*, *konstertmeyster*, *fortepiano* kabi san'at sohasiga doir olinmalar o'zbek tilida eng faol qo'llanuvchi so'zlar hisoblanadi.

Shunday qilib ushbu maqolada nemis tilidan o'zlashgan va tilimizda faol qo'llanilayotgan so'zlar to'g'risida ma'lumot berdik. Hozirda yoshlarimiz tomonidan

chet tillarni o'rganishga bo'lgan katta ehtiyoj hamda bu jarayonning davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarilganligi xorijiy tillarni o'rganishga katta imkoniyat yaratmoqda. Shu sababli nemis tilini mukammal o'rganishni ta'minlashiga qaratilgan izlanishlar davr talabidir. Nemis va o'zbek tillari orasidagi o'xshashlik va tafovutlar borasidagi shunday tadqiqotlar keyingi izlanishlarimiz mazmunini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Benyaminov Y.R., Mirsoatov T.Z., Saidov S.S., Rustambekova M. R. «Nemischa –o'zbekcha lug'at», - T.: O'qituvchi, 1985.-248 b.
2. Benyaminov Y.R., Saidov S.S., «Nemischa–o'zbekcha o'quv lug'at», - T.: O'qituvchi, 1991.- 396 b.
3. «**O'zbek tilining izohli lug'ati**» 2 jildli /Z.M.Ma'rufov tahriri ostida/ - Moskva, Rus tili, 1981.
4. «**O'zbek tilining izohli lug'ati**» V jildli /A.Madvaliev tahriri ostida/ -T.: O'zME, 2006-2008.
5. Babayev M.T., Babayeva V.T. "Chet tillarini o'rganishda tarjimaning ahamiyati va roli" - Buxoro "Durdona" nashriyoti-2020y. 348-351.
6. Babaev Mahmud Tashpulatovich USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021. 64-67
7. Babayev Maxmud Tashpulatovich, Babayeva Vasila Tashpulatovna. Nemis tilini o'rgatishda maqol, matal va iboralardan foydalanish. Buxoro-2021. 128-131.
8. Бабаева В. Т. Смешанное обучение – образование третьего поколения. International Scientific Journal ISJ Theoretical Applied Science Philadelphia, USA. Issue 01, volume 81 published January 30, 2020 622-625

9. Бабаева В.Т. *История методов обучения иностранным языкам*. Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании» Наука. Мысль: электронный периодический журнал 2014 . 3
10. Бабаева В. Т. Некоторые методы обратной связи в обучении и обучении иностранным языкам. Электронное периодическое издание “Экономика и социум” ISSN 2225-1545 .№ 1(68)- 2020,
11. Babayeva V.T. Mavlonova O’, Ro’ziyeva D.S. IRONY IN DRAMATIC WORKS. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192
12. Бабаева В.Т.“Деятельность современного учителя в контексте нового парадигмы образования”. Образование и культура. Векторы сотрудничества. Материалы межвузовской научно-теоретического конференции. Челябинск, 2019.Стр. 30-34.

MUNDARIJA

№	Maqola mavzusi	Sahifa
1	THE ROLE OF WH- QUESTIONS IN TEACHING SPEAKING	4
2	БЎСМ ЎҚУВЧИ-СПОРТЧИЛАРИДА ВАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТДАГИ МАВЖУД АҲВОЛИ	9
3	ТЕХНОЛОГИЯ РАННЕГО ОБУЧЕНИЯ	16
4	NEMIS TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING MAVZUYI GURUHLARI TASNIFI	23
5	ОБУЧАЮЩИЕ ДИКТАНТЫ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧАЮЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	35
6	INGLIZ TILINI O'QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT	39
7	FARG'ONA VODIYSINING IQLIMI VA YOG'INLARI	49
8	AQSHNING MARKAZIY OSIYODAGI STRATEGIYASI	53
9	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSINI O'TISHNING YANGICHA USLUBLARI	63
10	BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YANGILIKLAR KIRITISH MAZMUNI VA YO'NALISHLARI	69
11	YANGI O'ZBEKISTON BOSIB O'TAYOTGAN YO'L	72
12	FEATURES AND PROBLEMS OF TRANSLATION OF LITERARY TEXT	78
13	TEACHING SPEECH SKILLS	83
14	PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALAR IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH MECHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	87
15	МАТЕМАТИКА FANINING RIVOJLANISHI VA SONLARNING PAYDO BO'LISHI	92
16	СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ	96
17	ҚОВОҚДОШЛАР ОИЛАСИ	102
18	FRAZEOLOGIK IBORALAR VA ULARNING SEMANTIK	108
19	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INTELLEKTUAL O'YINLARDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI	117
20	FANDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK TOMONLARI	127
21	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI	135
22	KASBGA YO'NALTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	140
23	BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA YANGI PEDAGOGIK METODLAR	146
24	RAQAMLI TA'LIM ISHTIROKCHILARI KOMPETENTLIGI OSHIRISH MUAMMOLARI	150
25	TALABALARDA JISMONIY MADANIYANI RIVOJLANTIRISH	154
26	ОБНОВЛЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ В СИСТЕМЕ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	161